

O'SMIR YOSHDAGI BOLALARDA KITOBXONLIKNI SHAKLLANTIRISHDA NARRATIV MATERIALLARDAN FOYDALANISHDA XORIJ TAJRIBASI MAZMUNI

Yunusova Shaxnoza Axror qizi

mustaqil izlanuvchi

Annotatsiya. Maqolada o'smir yoshdagi bolalarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirishda narrativ materiallardan foydalanishning xorij tajribasi tahlil qilingan. AQSh, Yaponiya, Janubiy Koreya, Germaniya va Finlyandiya ta'lim tizimlarida hikoya asosidagi yondashuvlarning pedagogik samaradorligi yoritilgan. Narrativ materiallarning o'quvchi shaxsini rivojlantirishdagi o'rni asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: kitobxonlik, narrativ materiallar, o'smirlar, xorijiy tajriba, o'qish madaniyati, ta'lim.

Аннотация. В статье рассматривается зарубежный опыт использования нарративных материалов в формировании читательской культуры у подростков. Проанализированы педагогические подходы, применяемые в образовательных системах США, Японии, Южной Кореи, Германии и Финляндии. Обоснована роль повествовательных текстов в развитии интереса к чтению и личностного становления учащихся.

Ключевые слова: читательская культура, нарративные материалы, подростки, зарубежный опыт, образование, чтение.

Annotation. The article analyzes foreign experience in using narrative materials to develop reading culture among adolescents. Educational practices of the USA, Japan, South Korea, Germany, and Finland are examined, highlighting the pedagogical effectiveness of story-based approaches. The role of narrative texts in fostering reading motivation and personal development is substantiated.

Keywords: reading culture, narrative materials, adolescents, foreign experience, education, literacy.

Jahonda o'smir yoshdagi bolalarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish dolzarb pedagogik muammolardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, narrativ materiallar — hikoya, ertak, voqeaviy matnlar orqali o'qishga bo'lgan qiziqishni oshirish xorijiy ta'lim tizimlarida samarali vosita sifatida e'tirof etilmoqda. Ushbu maqolada rivojlangan mamlakatlar tajribasi asosida narrativ materiallardan foydalanishning pedagogik, tarbiyaviy va ijtimoiy ahamiyati yoritiladi.

O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy axborot vositalarining (OAV) bugungi kundagi jarayonlari turli janr va uslubiy shakllarda ifodalanayotgan axborot materiallari bilan belgilanadi. Shu nuqtai nazardan, narrativ uslubga asoslangan jurnalistik materiallar o'zining didaktik, estetik va emotsional ta'sir kuchi bilan jamoatchilik kasbini yaratishda muhim ahamiyatga ega. Bunday materiallar tabiiy yangiliklar, balki ma'naviy-ma'rifiy, madaniy-tarixiy, psixologik va ijtimoiy vaziyatdan muhim xabarlar ham o'quvchi ongiga yetkazib beradi.

Narrativ jurnalistika – bu voqelikni oddiy faktlar bilan emas, balki hikoya uslubida, voqealar rivoji va qahramonlar orqali ko'rsatishga, jurnalistika turi bo'lib, unda axborotga san'atkorona dunyo, badiiy tafakkur va emotsional ifodaga xosdir[1]. Ushbu uslubning o'quvchi bilan bevosita ruhiy jurnalistikasiga yordam beradi, diqqatni o'rganish va matnni oson hazm bo'ladigan shaklda taqdim etadi. Narrativ jurnalistika faktlarda emas balki noan'anaviy jurnalistikani taqdim etadi, bu esa o'quvchining voqeani yanada tushunarli va qiziqarli o'rganishga imkon beradi. Faktlar, voqealar va qahramonlar o'rtasidagi bog'lanishlar, ma'lum bir yuklanish, xotiralar va dramatik asarlar ishlab chiqarishga olib keladi, bu esa matnni diqqat bilan oqishni va uni oson hazm qilishni ta'minlaydi. Hikoya uslubidagi jurnalistika o'quvchini faqat ma'lumot bilan tanishtirmaydi, balki uni voqeaga ko'madi va uni o'ziga jalb qiladi. Dunyo miqyosida Gay Talese, Tom Vulf, Norman Mailer jurnalistlar ushbu uslub asoschilaridandir[9]. Ularning ishlari O'zbekiston jurnalistikasida ham bevosita yoki bilvosita olib bormoqda. Respublikamiz jurnalistikasida ham hikoyaga yaqin, ya'ni tinglovchiga yaqin, ijtimoiy masalalarni teran yorituvchi materiallar soni ortib jarayonlar. Matbuot erkinligi, jurnalistlar faoliyatiga erkinliklarining yuqori darajasini ko'rsatadi ya'ni insonlik erkinlik mustahkamlanishi narrativ materiallar uchun ham yangi narsalarni taqdim etdi. Jumladan quyidagi yo'nalishlarda o'zgarishlar kuzatilmoqda:

1. Ijtimoiy tarmoqlar va onlayn OAV'ning ta'siri: OAV Narrativ materiallar ayniqsa bloglar, internet gazetalar, YouTube reportajlari va Telegram-kanallarda keng turli kontentlar tarqalmoqda. Bu esa an'anaviy OAV bilan bir qatorda hisoblangan OAVni ham kuchli hikoya chilik uslubida ishlashga undamoqda.

2. Hikoya asosida voqea tahlili: Qonunchilikdagi o'zgarishlar, ijtimoiy hayotdagi yangiliklar oddiy statistik ma'lumot sifatida emas, balki inson hayotiga ta'siri orqali hikoya uslubida yoritilishi mumkin. Masalan, o'z vaqtida ko'plab OAV shaxslar hayotiy hikoyalari, o'zining pandemiyadagi kechayu kunduz xizmatlari haqida hikoya uslubida materiallar tayyorladi.

3. Pedagogik va tarbiyaviy boshqarish: Yoshlar orasida o'qish madaniyatini boshqarish, kitobxonlikni targ'ib qilishda ham narrativ materiallar muhim vosita sifatida foydalaniladi. Masalan, "Zamon" informatsion dasturi, "Yoshlar" telekanali va boshqa ko'plab platformalarda kitobxonlar haqida hikoyaviy intervyular, o'quvchilar sifatida tasvirlangan yoshlar materiallar muntazam e'lon qilinmoqda.

Narrativika bugungi kunda AQSh, Buyuk Britaniya, Fransiya, Yaponiya kabi katta rivojlangan mamlakatlarda axborot ishlab chiqarishda jurnalistikaning ajralmas samarali uslubidan biri sifatida qaralmoqda. Dunyo miqyosida yosh avlodni kitobxonlikka jalb etishda narrativ materiallardan foydalanish keng tarqalgan bo'lib, bu jarayon har bir davlatning madaniy, ta'limiy va ijtimoiy kontekstiga moslashtirilgan. Rivojlangan davlatlar ta'lim tizimida o'qish madaniyatini shakllantirish strategiyasi narrativ materiallarga asoslangan holda, oila va maktab o'rtasidagi mustahkam hamkorlikni kuchaytirish orqali amalga oshiriladi. Xususan, AQSh, Finlandiya, Yaponiya, Janubiy Koreya, Singapur kabi mamlakatlar tajribasi bu borada o'ziga xos yondashuvlar bilan ajralib turadi.

AQShda esa M. Kokelberg tadqiqot olib borgan, unga ko'ra AQSH da "Read Aloud" (ovozli o'qish) dasturi orqali ota-onalar farzandlari bilan muntazam badiiy asarlarni birgalikda o'qishadi. Bu jarayonda kitoblar orqali bola ijtimoiy rollarni, qadriyatlarni, muammoli vaziyatlarni anglaydi. Maktab kutubxonalarida hikoya terapiyasi, voqeaviy o'qish mashg'ulotlari, qahramonlar bilan identifikatsiya qilish asosidagi mashg'ulotlar o'tkaziladi. Masalan, Mark Tvenning "Tom Soyer sarguzashtlari" asari orqali bolalar erkinlik, halollik, do'stlik kabi qadriyatlarni muhokama qiladilar[1]. Amerika Qo'shma Shtatlarida bolalarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish bo'yicha olib borilayotgan ishlarda oilaviy savodxonlik dasturlari (Family Literacy Programs) alohida ahamiyat kasb etadi. Bu dasturlar o'z mohiyatiga ko'ra nafaqat bolalarning o'qish ko'nikmalarini rivojlantirishni, balki oila a'zolarini o'qish jarayoniga jalb qilish, ota-onaning tarbiyaviy rolini kuchaytirish va o'quv muhitini uy sharoitida mustahkamlashni ham maqsad qilgan. Mazkur dasturlar doirasida narrativ materiallar – hikoya, ertak, voqeaviy matnlar asosida ota-onaga metodik ko'rsatmalar, treninglar, tavsiyalar va namunaviy faoliyat shakllari taqdim etiladi. Bu materiallar bolada o'qishga qiziqishni uyg'otish, emotsional ta'sir o'tkazish, shaxsiy munosabatni shakllantirish va o'rganishga ongli kirishishga xizmat qiladi. Aynan narrativ shakldagi matnlar ota-ona va bola o'rtasida emotsional va fikriy aloqani mustahkamlovchi vosita sifatida qo'llaniladi.

Amerika pedagogikasida keng qo'llanilayotgan va yuqori samaradorlikka ega bo'lgan metodlardan biri bu – "Dialogic Reading" deb nomlanuvchi usuldir. Ushbu metod o'qish jarayonini faqat matnni o'qib berish emas, balki bola bilan savol-javob, suhbat, taxmin qilish, muqobil yakun tuzish, his-tuyg'ularni ifodalash kabi faol, interaktiv shaklga aylantirishni nazarda tutadi. Ota-ona bolaga matnni o'qib berar ekan, har bir sahifada savollar berib, bola fikr bildiradi, taxmin qiladi, voqeani davom ettiradi yoki uni qayta hikoya qiladi. Bu jarayon o'quvchining tushunish, eslab qolish, mantiqiy bog'lash, ifodalash kabi kognitiv ko'nikmalarini sezilarli darajada rivojlantiradi[6].

Bundan tashqari, "Dialogic Reading" usuli orqali ota-ona va farzand o'rtasida doimiy emotsional va kommunikativ aloqadorlik yuzaga keladi. Bola o'qilayotgan matnni faqat passiv tinglovchi sifatida emas, balki faol ishtirokchi sifatida qabul qiladi. Bu esa unda kitobga nisbatan ijobiy munosabat, qiziqish, fikr bildirish istagini kuchaytiradi. Shu bois AQShda bu metod, ayniqsa, o'smirlik davriga kirayotgan bolalarda o'qishga bo'lgan ehtiyojni mustahkamlash va shaxsiy munosabatni shakllantirish vositasi sifatida keng qo'llaniladi. AQShdagi tajribada oilalar uchun mo'ljallangan dasturlar doirasida ota-onalarga hikoyaviy muhit yaratish, har kuni birgalikda kitob o'qish uchun vaqt ajratish, bolani do'kon yoki kutubxonaga olib borib kitob tanlash huquqini berish, o'qilgan matnni hayotiy voqealar bilan bog'lash kabi metodik tavsiyalar beriladi. Bunday yondashuv orqali bola kitobni hayotiy ehtiyoj sifatida anglay boshlaydi, u bilan ruhiy bog'lanadi, mustaqil o'qishga ichki ehtiyoj sezadi.

Yaponiyada esa o'qituvchilar bolalarni ertalabgi "o'qish sessiyasi" bilan darsga tayyorlaydi. Ular har kuni 10–15 daqiqa davomida o'quvchilar bilan hikoya o'qishadi va ushbu hikoyalar asosida kun davomida tahliliy, ijodiy mashg'ulotlar o'tkaziladi. Bu usul yordamida bolalar ruhiy tayyorgarlik holatiga keladi, emotsional holat barqarorlashadi va

o'qishga ijobiy munosabat shakllanadi. Yaponiyaliklar o'z milliy ertaklarini va zamonaviy adabiyot namunalarini doimiy muhokama qilishadi. Ular uchun "qahramon bilan bir kun" deb nomlangan interaktiv darslar ham muhim: bolalar sevimli obrazlari sifatida harakat qilishadi, bu esa identifikatsiyani kuchaytiradi[7].

Janubiy Koreyada esa "Narrative-based curriculum" modeli asosida o'qish darslari tuziladi. Maktabgacha ta'limdan boshlab, bolalarga ertaklar va hikoyalar asosida axloqiy tushunchalar beriladi. Har bir o'quv yilida bolalar ma'lum sonda asarni o'qishadi va ular asosida "kitob kundaligi" yuritishadi. Oila bu jarayonda faol ishtirok etadi: ota-onalar o'z farzandining hisobotlarini tahlil qiladi, ular bilan birgalikda esa maxsus "book talk" (kitob suhbat) tashkil etiladi. Bunday suhbatlar orqali bola fikr bildirishga, tanqidiy yondashishga va o'z qarashini asoslashga o'rganadi[5].

Germaniyada esa maktab bilan oila o'rtasida "Literature Partnership" dasturlari mavjud bo'lib, bu orqali o'quvchilar oilasi bilan birgalikda kitob tanlaydi, uni o'qiydi va baham ko'radi. Har bir bola uchun "individual o'qish yo'nalishi" yaratiladi va uning asosida narrativ materiallar tanlanadi. Kitobxonlik baholari faqat o'qilgan matn miqdori asosida emas, balki bola tomonidan bildirgan mulohazalar, ifodalangan his-tuyg'ular, yozgan esse va hikoyalar asosida aniqlanadi[4].

Finlyandiya ta'limi bugungi kunda dunyodagi eng ilg'or va muvaffaqiyatli ta'lim tizimlaridan biri sifatida tan olingan. Bu mamlakatda bolalarning o'qishga bo'lgan qiziqishi, savodxonlik darajasi va mustaqil kitobxonlik madaniyati yuqoriligi bejiz emas. Bunda oila va ta'lim muassasalari o'rtasidagi hamkorlik, ayniqsa, narrativ materiallarga asoslangan oilaviy o'quv dasturlari muhim rol o'ynaydi. Finlyandiya maktabgacha va boshlang'ich ta'limga tayyorgarlik bosqichlarida ota-onalar uchun maxsus ishlab chiqilgan dasturlar orqali bolada o'qishga qiziqish uyg'otish, ma'naviy-axloqiy tarbiyani shakllantirish, hayotiy ko'nikmalarni singdirish rejalashtirilgan. Ana shunday dasturlardan biri bu – "Lukuinto" (Reading for Joy) nomli milliy loyiha bo'lib[4], uning asosiy maqsadi kitob o'qishni ijtimoiy-madaniy qadriyat sifatida rivojlantirish, oilada o'quv muhitini yaratish va bola-oila-maktab o'rtasidagi uzviy aloqani mustahkamlashdan iborat. Ushbu dastur doirasida ota-onalarga ertak aytish, hayotiy voqealarni hikoya qilish, bola bilan birgalikda muhokama qilish bo'yicha metodik ko'rsatmalar, treninglar, audio-video materiallar taqdim etiladi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, narrativ materiallardan foydalanish o'smir yoshdagi bolalarda kitobxonlikni shakllantirishda samarali pedagogik vosita hisoblanadi. Xorijiy tajriba asosida hikoyaviy matnlar orqali bolalarda emotsional qiziqish, tanqidiy fikrlash, axloqiy qadriyatlar va mustaqil o'qishga bo'lgan ichki ehtiyoj rivojlanadi. Oila, maktab va kutubxona hamkorligiga asoslangan narrativ yondashuv bolalarning o'qish madaniyatini barqaror shakllantirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Coeckelbergh M., Reijers W. Narrative technologies: A philosophical investigation of the narrative capacities of technologies by using Ricoeur's narrative theory // Human Studies. – 2016. – T. 39. – C. 325-346.

2. Finnish Ministry of Education and Culture. National Literacy Strategy 2021–2030. – Helsinki: Ministry of Education, 2021. – 56 p.
3. Finnish National Board of Education. Lukuinto Programme: Joy of Reading. – Helsinki: FNBE, 2016. – 48 p.
4. Hohendanner M. et al. Exploring the reflective space of AI narratives through speculative design in Japan and Germany //Proceedings of the 2023 ACM conference on information technology for social good. – 2023. – C. 351-362.
5. Moodie I. Grounded narrative inquiry into language teacher cognition: Stories and case studies on English language teaching in South Korea : дис. – University of Otago, 2015.
6. U.S. Department of Education. Early Literacy and Family Engagement: Policy Brief. – Washington, D.C.: Office of Elementary and Secondary Education, 2016. – 24 p.
7. Yang S. Networking South Korea: Internet, nation, and new subjects //Media, Culture & Society. – 2017. – Т. 39. – №. 5. – С. 740-749.
8. Качанов Д. Г. Нарратив в мультимедийной журналистике: анализ российских и зарубежных медиапроектов //Вестник Московского университета. Серия 10. Журналистика. – 2020. – №. 1. – С. 79-101.
9. Собиров Р. Н. Эволюция мужской периодики: от первых печатных изданий до онлайн-журналов //Журналистика, мультимедиа: информационный и социокультурный потенциал. – 2021. – С. 370-378.